

О'QUVCHILARNING NUTQINI O'STIRISHDA LEKSIKOLOGIYA BO'LIMINI O'QITISHNING O'RNI VA AHAMIYATI

Xanmuratova Sayyora – Nukus DPI talabasi

Otajonova Madina – Nukus DPI talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchi yoshlarning nutqini o'stirishda leksikologiya bo'limini o'qitishning o'рни va ahamiyati borasidagi bir qancha fikrlar yoritilgan .

Kalit so'zlar: nutq madaniyati, leksikologiya , bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar, omonim, paronim , sinonim va antonimlar, o'z va ko'chma ma'noli so'zlar

Ona tili ta'limi yoshlarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga , erkin fikrlay olishi , o'zgalar fikrini tinglashi , o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon eta olishi , jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la oladigan ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda ona tili ta'limi va uni qamrab oladigan barcha bo'limlariga o'quv fani emas , balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.

Hozirgi kundagi zamon talabi bo'lgan yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Shu nuqtayi nazardan, ona tili darslaridagi har bir tilshunoslik bo'limi nutq madaniyatini o'stirish va rivojlantirishga monand tarzda olib boriladi. Bu borada tilshunoslikning leksikologiya bo'limi alohida ahamiyatga egadir.

Leksikologiya yunoncha so'z bo'lib ,(lexikos - so'z va logos – fan) so'z haqidagi fan degan ma'noni bildiradi. Demak , leksikologiya so'z va uning ma'nosi haqidagi ta'limotdir. Unda har bir so'zni yolg'iz holda emas , balki boshqa so'zlar bilan bo'liq holda o'rganadi. Biz o'z fikrimizni gap bilan ifodalaymiz . Gap esa so'zlardan tuziladi. So'z tilning qurilish materialidir , shuning uchun ham so'zni bilmay turib tilni bilish, ravon va to'g'ri so'zlay olish mumkin emas.

Leksikologiyada bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar , so'zning o'z va ko'chma ma'nolari , ma'no ko'chish usullari, so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari , atamalar , shevaga oid, eski , yangi va olinma so'zlar o'rganiladi. Yuqorida aytib o'tilgan leksikologiyaga oid so'zlarning nutq madaniyati va uni o'stirishdagi ahamiyatini borasida bir necha qarashlarni keltirib o'tamiz .

Tilimizdagi so'zlar bir manoli va ko'p ma'nolidir. Yagona ma'noga ega bo'lgan so'zlar bir ma'noli(ruchka , baliq , daftar , gul , daraxt, televizov kabi)

so'zning matn mazmunidan kelib chiqib bir necha ma'no anglatishi ko'p ma'noli (odamning ko'zi , ishning ko'zi , uzukning ko'zi) so'zlar deyiladi. Ko'p ma'noli so'zlar o'z va ko'chma ma'nolarga ega bo'ladi. Masalan , yuqoridagi odamning ko'zi o'z manosida , yani to'g'ri manoda kelgan bo'lsa, ishning ko'zi va uzukning ko'zi esa ko'chma ma'noda kelganligini ko'rishimiz mumkin. Shu jihatdan , o'quvchilar nutqida ko'p ma'noli so'zlardan o'rinli foydalanish nutqning ta'sirchan va ifodali bo'lishiga yordam beradi.

O'zbek tilida ma'no ko'chish usullaridan to'g'ri foydalanish ham nutqni yanada go'zal va jozibador qiladi. Quyidagi ma'no ko'chish usullari mavjud:

a)metafora-o'xshashlikka asoslangan holda ma'no ko'chishi . Masalan, ishning *ko'zi* , derazaning *og'zi* , qozonning *qulog'i* , *oltin* kuz , *temir* intizom kabi.

b)metonimiya-o'zaro bo'g'liqlik asosida ma'no ko'chishi. Masalan : *Fuzuliyni* oldim qo'linga ; Menga "*Farhod va Shirin*"ni berib tur .

d)sinekdoxa-butunni qism yoki qismni butun asosida atash. Masalan: U *tirnoqa* zor edi; Uyda bitta ham *tuyoq* qolmadi

e)vazifadoshlik-vazifasi bir xilligi asosida ma'no ko'chishi. *O'q* , *qalam* , *siyoh*

f)kinoya-so'zlarni aks ma'noda qo'llash. Bunday so'zlar qo'shtirnoq bilan ajratiladi .Masalan: Ana guruhimizning "*professori*" kelyapti.

Metafora va sinekdoxalardan foydalanish nutqimizni ta'sirchan , jozibali qiladi. O'quvchining badiiy-estetik qobiliyatini namoyon qiladi. Metonimiya asosida ko'chma ma'no hosil qilish fikrimizni lo'nda, ifodali, ta'sirchan bayon qilishning bir yo'li sanaladi.

Yuqorida aytib o'tilgan leksik birliklardan tashqari so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari ham nutqni o'stirishda va so'z boyligini oshirishda alohida ahamiyatlidir. Chunki og'zaki va yozma nutqda sinonim , omonim, paronim va antonimlardan qanchalik ko'p foydalanilsa tuzilgan har qanday nutq o'zining jozibadorligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa sinonim , yani ma'nodosh so'zlarni nutqda o'z o'rnida qo'llay olish alohida ahamiyatga ega. Masalan , *yuz* , *aft* , *bashara* , *bet* , *turq* , *chehra* , *jamol* , *oraz* , *uzor* , *ruxsor* ma'nodoshlik qatorida yuz biron-bir uslubga xoslanmagan, *bet* , *aft* , *bashara* salbiy bo'yoqdor va asosan so'zlashuv uslubiga xos, *chehra* , *jamol* ijobiy bo'yoqdor hamda badiiy uslubga xos, *oraz* , *uzor* , *ruxsor* so'zlari esa eskirgan va kitobiy uslub doirasida qo'llaniladi. Bundan tashqari nutqda sinonimlardan foydalanish takrorlardan holi og'zaki va yozma nutq tuzishning asosiy omilidir.

Shevaga oid so'zlardan nutqda foydalanish ham tilimizning naqadar go'zal ekanligi va ushbu shevalarning qaysi hududga mansubligini anglashimizda alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan: Nodira *zangidan* (arvon) *uchaka* (tomga) chiqdi (Xorazm shevasi) . Yangi so'zlardan hozirgi kunda foydalanmaslikning esa iloji yo'q . Mamlakat kelajagini o'z taqdiri bilan bo'g'layotgan har bir o'quvchilarning

kundalik hayotini yangi so'zlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Masalan , *telefon* , *kompyuter* , *marketing* , *institut* , *barter* , *bank* , *menejer* va shu kabi ko'plab so'zlardan foydalanish har bir yosh avlodning so'z boyligini oshiradi hamda nutqini hozirgi zamon talabiga monand tarzda tuzishini ta'minlaydi.

Mamlakatimizni rivojlangan malakatlar qatoriga ko'tarishda o'z so'zini to'g'ri, ravon , aniq va soda , lo'nda va ta'sirchan qilib ifodalaydigan o'quvchi yoshlarni tarbiyalash hozirgi kundagi har bir ona tili o'qituvchisining asosiy maqsadidir. Shu nuqtayi nazardan , Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari har birimiz uchun ibrat mayog'i va kelajakka bo'lgan ishonchning yuksak ifodasi ekanligini anglashimiz lozimdir :

“Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa , havas qiladigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Q. “Nutq o'stirish” – Toshkent : “O'qituvchi”, 1980-y
2. Jamolxonov H. “Hozirgi o'zbek adabiy tili” - Toshkent: “ Talqin “ , 2005-y

www.ziyouz.com

www.uzauz

www.ilm.uz